

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI O'QISH VA YOZISHNI O'RGATISH METODIKASI

Qo'qon universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Sotvoldiyeva Dilnura Zafarjon qizi

Qo'qon universiteti

Ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Valiyeva Nargiza Athamboyevna

ORCID:0009-0003-7317-0510

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlar orqali o'qish va yozishni o'rgatishning metodik asoslari tahlil qilingan. O'yinli ta'lim texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan, ularning o'quvchilarning qiziqishini oshirish, tafakkurini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatishdagi roli yoritilgan. Turli fanlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan didaktik o'yin misollariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, dars jarayonida ularni samarali qo'llash usullari tavsiya etilgan. Tadqiqot mavjud manbalarga tayangan holda ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, boshlang'ich ta'lim, metodika, o'qish, yozish, ta'lim texnologiyalari, innovatsiya

Abstract: This article analyzes the methodological foundations of teaching reading and writing in primary school through didactic games. It explores the theoretical and practical aspects of game-based learning technologies, highlighting their role in increasing student interest, developing thinking, and fostering independent reasoning. Special attention is given to examples of didactic games applicable across subjects. The study also provides recommendations for their effective implementation in the classroom. The analysis is grounded in relevant academic sources.

Keywords: didactic games, primary education, methodology, reading, writing, educational technologies, innovation

Аннотация: В статье проанализированы методические основы обучения чтению и письму в начальных классах с использованием дидактических игр. Рассмотрены теоретические и практические аспекты игровых технологий обучения, их роль в повышении интереса учащихся, развитии мышления и формировании навыков самостоятельного мышления. Особое внимание уделено примерам дидактических игр, применимых в различных предметах. Также предложены эффективные способы их внедрения на уроках. Исследование основано на актуальных научных источниках.

Ключевые слова: дидактические игры, начальное образование, методика, чтение, письмо, образовательные технологии, инновации

Boshlang'ich ta'lim – bolaning tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishda muhim bosqich sanaladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish maqsadida pedagoglar turli innovatsion metod va texnologiyalardan, jumladan didaktik o'yinlardan keng foydalanmoqda. Didaktik o'yinlar darsni interfaol usulda o'tkazish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, Yunusova (2022) o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qish va yozish darslarida ham didaktik o'yinlarni samarali qo'llash usullarini izlab topishga intilishadi. Boshlang'ich ta'lim bolaning tafakkuri, nutqi, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasini shakllantiradigan eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bola ilk bor o'qish, yozish, muloqot qilish, obrazli va mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi asosiy ko'nikmalarni egallaydi. So'nggi yillarda ta'lim jarayonini yanada samarali qilish maqsadida pedagogik jarayonga turli innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar hamda o'yin asosida o'qitish yondashuvlari keng tatbiq qilinmoqda. Didaktik o'yinlar shular jumlasiga kiradi va ular boshlang'ich sinflarda bilim berish jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarni faollikka undaydi hamda darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Turli tadqiqotlar, jumladan Yunusova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda didaktik o'yinlar o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini namoyon etishda, dars mazmunini yengil va qiziqarli ko'rinishda o'zlashtirishda muhim omil ekanini ta'kidlanadi. Demak, didaktik o'yinlar nafaqat o'qitish jarayonini jonlantiradi, balki boshlang'ich sinf pedagogikasida zamonaviy yondashuvning ajralmas qismi sifatida samaradorlikni oshiradi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, bilim olish jarayonini o'yin shakli orqali tashkil etuvchi pedagogik metod bo'lib, u qat'iy qoidalar, aniq maqsad va o'qituvchining boshqaruv faoliyati asosida amalga oshiriladi. O'yin davomida bola mavzuni chuqurroq anglaydi, o'z fikrini erkin ifodalaydi, tahlil qiladi, topqirlik ko'rsatadi va bilimni amaliy faoliyatda sinab ko'radi. Didaktik o'yinlarning turlari turlicha bo'lib, ular o'quv fanining mazmuni va dars maqsadiga muvofiq tanlanadi. Masalan, ob'ektlar bilan bajariladigan o'yinlar konstruktiv faoliyatni, so'z o'yinlari lug'at boyligi va nutq madaniyatini, fonetik o'yinlar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, mantiqiy o'yinlar esa tafakkur jarayonlarini rivojlantiradi. Shuningdek, jamoaviy rol o'yinlar o'quvchilarda ijtimoiy muloqot, hamkorlik va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Psixologiya fanida o'yin bolaning yetakchi faoliyati sifatida e'tirof etiladi. Vigotskiy o'yin bolani "yaqin rivojlanish zonasi"ga olib kiruvchi eng qulay metod ekanini ta'kidlagan. O'yin jarayonida bola o'z imkoniyatlaridan yuqoriroq darajada intellektual faoliyatni bajaradi, bu esa uning mantiqiy fikrlashi, xotirasi, diqqatini jamlash qobiliyati, sensor idroki va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Jamoaviy o'yinlar ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi, o'quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi, fikr almashadi, qaror qabul qilishni o'rganadi. Didaktik o'yinlar o'quv jarayonida motivatsiyani oshiradi, o'quvchilarda o'qish faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, darsdagi faollik va ishtirokni kuchaytiradi. Musayeva (2024) o'z tadqiqotlarida didaktik o'yinlarning o'quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, mustaqillik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi. O'yinlarning ta'lim jarayonidagi o'rnini keng bo'lib, ular bir nechta pedagogik vazifalarni bajaradi: bilimlarni mustahkamlash, yangi mavzuni o'zlashtirishni yengillashtirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, darsni jonlantirish, sog'lom raqobat muhiti yaratish va o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish. Shu jihatdan didaktik o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va mavzuni chuqur anglashga yordam beradi.

O'qish darslarida didaktik o'yinlar fonetik ko'nikmalarni shakllantirish, so'z va gap tuzish, matn mazmunini anglash kabi vazifalarni bajarishda juda muhimdir. Masalan, "So'z top" o'yini harflar asosida yangi so'zlar yaratish orqali lug'at boyligini oshiradi, "Matnda top" o'yini esa o'quvchilarga matndan kerakli so'zni izlab topishni, matn strukturasini tushunishni o'rgatadi. "Ertakni davom ettir" o'yini esa o'quvchilarning tasavvurini, kreativ fikrlashini, og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi. Yozuv darslarida ham o'yinlardan samarali foydalanish mumkin. "Bo'g'inlardan so'z tuz" o'yini bo'g'inlarni to'g'ri birlashtirishga yordam beradi, "Harflarni tartibga qo'y" o'yini esa orfografik savodxonlikni mustahkamlaydi. "Rasm asosida hikoya tuzing" kabi o'yinlar o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga, matn tuzish ko'nikmalariga, voqealar ketma-ketligini tasvirlashga o'rgatadi. Matematika darslarida o'yinlar o'quvchilarning abstrakt tafakkurini soddalashtiradi va jarayonni qiziqarli qiladi. "Hayolda hisoblang" kabi tezkor o'yinlar aqliy hisoblash malakasini rivojlantiradi. "Ortiqcha sonni top" mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi. "Figuralarni joylashtir" o'yini esa geometrik shakllarni idrok qilishni va fazoviy tasavvurni rivojlantiradi. Shuningdek, raqobatga asoslangan "Kim tezroq yechadi?" o'yini o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladigan "Nima o'zgardi?" o'yini kuzatuvchanlik va xotirani mustahkamlaydi. "Juftlikni top" o'yini o'quvchilarning obyektlarni taqqoslash, tasniflash ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Tabiat sirlarini topamiz" kabi o'yinlar esa kichik tajribalar orqali o'quvchilarni ilmiy fikrlashga o'rgatadi.¹

Matematika: Matematika darslarida aqliy hisoblash va mantiqiy muammolarni yechishga qaratilgan o'yinlar qo'llaniladi. Masalan, "Hayolda hisoblang" o'yinida o'qituvchi o'quvchilarga turli arifmetik misollarni aytadi va ular

¹ Yunusova N.N. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilimini oshirish usullari // Oriental Renaissance. – 2022. – T.2(5). – B.987–990.

natijalarni imkon qadar tez nomlashga harakat qiladi. Belgilangan vaqt ichida eng ko'p to'g'ri javob bergan o'quvchi g'olib e'lon qilinadi. Bunday o'yinlar bolalarning diqqatini jamlashga, mental hisoblash ko'nikmasini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, "Sonlarni qo'shing" va "Ortiqcha sonni toping" kabi o'yinlar ham o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantiradi va raqamlar bilan ishlashni mustahkamlaydi.²

O'qish va yozish (ona tili): Harflar va so'zlar bilan bog'liq o'yinlar o'qish-yozishni o'rganishni qiziqarli ko'rinishga olib keladi. Masalan, ustoz besh harfdan iborat ixtiyoriy so'z tanlab, o'quvchilardan ushbu so'zdagi harflarning qaysilari to'g'ri tartibda ekanini aniqlashlarini so'raydi. Belgilangan harf so'zda bo'lsa va to'g'ri joyda bo'lsa yashil, noto'g'ri joyda bo'lsa sariq, agar so'zda bo'lmasa qora rangda ko'rsatiladi. Bu o'yin yordamida bolalar harflarni tanlash, so'z tuzish va imlo qoidalarini mustahkamlashadi. Bundan tashqari, "Hikoya tuzing" kabi ijodiy o'yinlar bolalarning so'z boyligi va yozma nutqini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar tasodifiy so'zlar asosida qisqa hikoya tuzish orqali o'z nutqini va ijodkorligini rivojlantiradi.³

Tabiatshunoslik: Tabiat darslarida o'yinlar orqali tabiat olayotgan mavzular qiziqarli tarzda o'rgatiladi. Masalan, diqqat va xotirani sinovchi "Nima o'zgardi?" yoki "Juftlikni top" kabi o'yinlar bolalarning kuzatuvchanligini va ob'ektlarni eslab qolish ko'nikmasini oshiradi. Ushbu o'yinlarda bolalar rasm yoki predmetlar to'plamidagi farqlarni topish yoki ma'lum muddatdan so'ng eslab qolishni mashq qilib, olingan bilimlarni mustahkamlaydi. Yuqoridagi misollar didaktik o'yinlarni o'qish, yozish, matematika, ona tili va tabiatshunoslik darslarida qamrab olish usullarini namoyish etadi. Ular yordamida o'quvchilar mavzuga qiziqishini oshirib, darsga faol jalb etiladi hamda o'rganish natijasi yaxshilanadi.⁴

Natijada, didaktik o'yinlar boshlangan sinflarda o'qish va yozishni o'rganish, shuningdek matematik va tabiiy fanlarni o'qitishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlarni dars mazmuniga mos ravishda tanlab qo'llash o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va dars samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, bunday o'yinlar o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy tafakkur, hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Metodik nuqtai nazardan, dars mavzusiga mos o'yinlarni tanlash va ularning qoidalarini sodda qilib tushuntirish muhimdir. Masalan, matematik mavzularda matematik masalalar yechishga qaratilgan o'yinlarni, kichik sinf o'quvchilari uchun esa ko'proq vizual yoki interaktiv

² Normo'minova G.Sh., Xamroqulova F.K. Ta'limiy o'yinlar asosida boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan asosiy fanlardan didaktik ta'minot yaratish mexanizmlari // Ustozlar uchun pedagoglar.org. – 2025. – №70(1). – B.108–112.

³ Usmonova Sh.X. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tajribasida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar // Worldly Knowledge. – 2024. – №7. – B.142–144.

⁴ Musayeva N.N., Musayeva N.A., Xamdamova M.A. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning o'рни va ahamiyati // Inter Education & Global Study. – 2024. – №10. – B.236–242.

elementlarga ega o'yinlarni qo'llash samarali bo'ladi. Bu tavsiyalarni o'zlashtirgan holda, o'qituvchilar dars jarayonini yanada qiziqarli va interfaol yo'lga qo'yishi mumkin. Barcha tahlillar va adabiyotlar asosan didaktik o'yinlarni ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish va bilimlarni mustahkamlash vositasi deb biladi. Shu bois, boshlang'ich sinflarda o'qish va yozishni o'rgatishda ham didaktik o'yin metodlaridan foydalangan holda darslarni loyihalashtirish ayniqsa muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarni faqat tayyor bilim oluvchilar sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, ijodiy g'oya yaratuvchi shaxslar sifatida shakllantirishdir. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchi tafakkurini faollashtiradi, uning qiziqishini uyg'otadi va bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beradi.⁵

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normo'minova G.Sh., Xamroqulova F.K. Ta'limiy o'yinlar asosida boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan asosiy fanlardan didaktik ta'minot yaratish mexanizmlari // Ustozlar uchun pedagoglar.org. – 2025. – №70(1). – B.108–112.
2. Yunusova N.N. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilimini oshirish usullari // Oriental Renaissance. – 2022. – T.2(5). – B.987–990.
3. Usmonova Sh.X. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tajribasida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar // Worldly Knowledge. – 2024. – №7. – B.142–144.
4. Musayeva N.N., Musayeva N.A., Xamdanova M.A. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati // Inter Education & Global Study. – 2024. – №10. – B.236–242.

⁵ Valiyeva, N. A. (2025). Forming Independent, Creative And Design Thinking In Students Through Innovative Technologies. TLEP – International Journal of Multidiscipline, 2(5), 30-34.

<https://tlepub.org/index.php/1/article/view/309>